

BILVOSITA SOLIQQQA TORTISHNING XORIY TAJRIBASI VA UNDA MAMLAKATIMIZ AMALIYOTIDA FOYDALANISH YO‘LLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17918552>

G'afforov Sh.N

TMCI instituti

"Iqtisod, moliya va buxgalteriya hisobi" kafedrası

v.b. dotsenti.

Annotatsiya

Ushbu maqolada bilvosita soliq, bilvosita soliqqa tortishning xorijiy tajribasi va undan mamlakatimiz amaliyotida foydalanish yo‘llari usullari haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar


Soliq, bilvosita soliq, xorij tajribasi, optimal tizim, model, zamonaviy soliq modellari, tamoyil, iqtisod, bevosita soliq

Mamlakatimizda samarali soliq siyosatini va ma'muriyatchiligini amalga oshirishda ilg'or xorij tajribasini o'rganish maqsadga muvofiq. Bu borada xalqaro amaliyotda mavjud soliqqa tortishning optimal tizimining modellarini ham o'rganish zarur.

Bugungi kunga qadar soliq tizimining optimal tuzilmasini shakllantirish masalalari mamlakatimiz va xorijiy olimlarning nazariy tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Hozirgi bosqichda jahondagi turli davlatlar soliq tizimlarini chuqur o'rganish, ularni makroiqtisodiy ko'rsatkichlar nuqtayi nazaridan tahlil qilish muhimdir. Bevosita va bilvosita soliqlarning iqtisodiyotga qanday ta'sir qilishini aniqlagan holda zamonaviy soliq modellarini qiyosiy-uslubiy o'rganish maqsadga muvofiqdir. Dunyoning aksariyat davlatlarining soliq tizimlari turli omillar ta'sirida shakllangan va rivojlangan. Shu bilan birga, iqtisodiy rivojlanishning ma'lum davrlarida turli mamlakatlar iqtisodchi va faylasuflari tomonidan taklif qilingan optimal soliq tizimini yaratish haqidagi g'oyalar hisobga olinadi.

Soliq tizimining optimal tuzilmasini shakllantirish A. Vagnerning soliqqa tortish tamoyillariga asoslanadi. A.Vagnerning soliqqa tortish tamoyillari 9 ta bo'lib, ular 4 guruhga bo'lingan (1.3-rasm)⁶⁹.

⁶⁹ Kurbanov Z.N. Soliq hisobi va auditining nazariy va metodologik asoslari. Diss.i.f.d. -Toshkent.2008.272 b.



1.3-rasm. Soliq tortish tamoyillari⁷⁰.

Bevosita va bilvosita soliqqa tortishning optimal tizimi bo'yicha iqtisodchilarning ilmiy izlanishlarida tegishli xulosalar qilingan. Jumladan amerikalik iqtisodchi R.A. Masgreyv o'zining nazariy tadqiqotlarini umumlashtirib, "optimal soliq tizimi bo'lishiga quyidagi talablarni ko'rsatib bergan:

- soliq tushumlari miqdorining yetarliligi;
- soliq yukining adolatli taqsimlanishi;
- soliqlar hajmini va soliq solish obyektni hisobga olish (tovar bozori yoki ishlab chiqarish omillari bozori;
- iste'mol yoki daromad);

⁷⁰ Kurbanov Z.N. Soliq hisobi va auditining nazariy va metodologik asoslari. Diss.i.f.d.-Toshkent.2008.272 b.

samarali bozorlarda iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayonida soliq ishtirokini minimallashtirish, chunki bunday aralashuv “ortiqcha yuk”ni keltirib chiqaradi va uni minimallashtirish kerak (Pareto-optimal soliq tuzilmasini izlash); soliq tizimi barqarorlashtirish va iqtisodiy o‘sishga qaratilgan fiskal siyosatni amalga oshirishga ko‘maklashishi kerak; soliq tizimi adolatli va xolis bo‘lgan, soliq to‘lovchiga ma‘lum bo‘lgan boshqaruv organlarini o‘z ichiga olishi kerak; boshqarish va nazorat qilish maqsadlarga erishish uchun zarur bo‘lgan xarajatlari minimal bo‘lishi kerak”⁷¹.


“Muayyan davlatning soliq tizimini va uning ijtimoiy yo‘nalishini baholashda eng muhim ko‘rsatkich bevosita va bilvosita soliqlarning soliqqa tortishning turli usullari (teng, mutanosib, progressiv, regressiv), shuningdek, belgilangan imtiyozlar va preferensiyalar bilan uyg‘unligidir. Iqtisodiy adabiyotlarda soliq tizimining 4 ta bazis modelari e’tirof etiladi: inglizsakson model, yevrokontinental model, lotinamerika modeli va aralash model”⁷².

Inglizsakson modelining xususiyati shundaki, bunda bevosita va jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqlarning ulushi yuqori bo‘lib, bilvosita soliqlarni ulushi unchalik seziralli bo‘lmaydi.

Yevrokontinental va lotinamerika modellari amal qilayotgan mamlakatlarda bilvosita soliqlarning ustunligi, bevosita soliqlarning ulushi past bo‘lib, ijtimoiy xarajatlarning darajasi yuqori bo‘ladi.

⁷¹ Musgrave P., Musgrave R. Public finance in theory and practice. Tata McGraw-Hill, 1989.

⁷² Nalogi i nalogooblojenije / pod red. M.V. Romanovskogo, N.G. Ivanovoy; S.-Peterb. gos. ekon. un-t. M.: Yurayt, 2016.



1.4-rasm.Soliqqa tortishning xalqaro modellari.

Aralash modelning amal qilishida oldingi inglizsakson model, yevrokontinental model, lotinamerika modellarining aralash bo‘lib, inflyatsiya darajasi yuqori bo‘lib, bilvosita soliqlarni ulushi yuqori bo‘lishligi sezilarlidir⁷³.

Z.N.Kurbanovning fikricha, soliqla tortish tizimi va soliq hisobi modellari bir biriga mos kelishi zarur⁷⁴.

Bevosita soliqlarning yuqori darajasi bilan ajralib turadigan mamlakatlarga AQSHdagi YAIMning 9,59%, Buyuk Britaniyadagi YAIMning 21,01%, Belgiyadagi YAIMning 15,19% va Norvegiyadagi YAIMning 22,69% bo‘lishi, ularning inglizsakson tizimiga tegishlilikini tasdiqlaydi.

Yevrokontinental modelga kiruvchi mamlakatlarda is’temol soliqlar, ya’ni bilvosita soliqlarning ulushi yuqori bo‘lgan mamlakatlarga Germaniyada YAIMning 10,03%, Finlyandiyada 13,53%, Vengriya, Polsha, Sloveniyalar kiritilgan⁷⁵.

Bilvosita soliqla tortishning yana bir keng tarqalgan shakli — bu tovar va xizmatlarni sotib olish joyida sotishdan olinadigan savdo solig‘i. Savdo soliqlari

⁷³ Petuxova R. A., Kasyuba I.A. Transformatsiya nalogovыx sistem na sovremennom etape. Jurnal. Izvestiya Sankt-Peterburgskogo gosudarstvennogo ekonomicheskogo universiteta. 2022.

⁷⁴ Kurbanov Z.N. Soliq hisobi va auditining nazariy va metodologik asoslari. Diss.i.f.d.-Toshkent.2008.272 b.

⁷⁵ Petuxova R. A., Kasyuba I.A. Transformatsiya nalogovыx sistem na sovremennom etape. Jurnal. Izvestiya Sankt-Peterburgskogo gosudarstvennogo ekonomicheskogo universiteta. 2022.

odatda Qo'shma Shtatlarda qo'llaniladi, ular shtat va mahalliy darajada, shuningdek, Yaponiya va Meksika kabi boshqa mamlakatlarda qo'llaniladi.

Aktsiz solig'i – tamaki, alkohol va benzin kabi aniq tovarlar va xizmatlardan olinadigan bilvosita soliqlarning yana bir turi. Ushbu soliqlar odatda ma'lum tovarlarni iste'mol qilishni to'xtatish va hukumatga daromad keltirish uchun ishlatiladi.

Bojxona to'lovlari ham bilvosita soliqqa tortishning bir shakli bo'lib, import qilinadigan tovarlarga nisbatan qo'llaniladi. Ushbu soliqlar mahalliy sanoatni himoya qilish va hukumatga daromad keltirish uchun ishlatiladi.

Umuman olganda, bilvosita soliqqa tortish dunyoning ko'plab mamlakatlari uchun umumiy va muhim daromad manbai bo'lib, turli mamlakatlar o'z hukumatlari uchun daromad olish uchun bilvosita soliqqa tortishning turli shakllarini qo'llagan. Ushbu soliqlar davlat xizmatlarini moliyalashtirish va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash uchun ishlatilishi mumkin, ammo ular munozarali bo'lishi mumkin, chunki ular kam ta'minlangan uy xo'jaliklariga nomutanosib ravishda ta'sir qilishi mumkin.

R. A. Petuxova va I.A. Kasyubalarni ilmiy tadqiqotlarida quyidagilar qayd etildi. "Inqirozga qarshi soliq choralari bilvosita soliqlarga ta'sir ko'rsatdi: bilvosita soliq stavkalarini oshirish, transchegaraviy operatsiyalar va raqamli xizmatlar uchun QQSni joriy etish, yangi bilvosita soliqlarni ("Ispaniya plastik solig'i") joriy etish va boshqalar. Italiyada 2021-yil 1-yanvardan QQS stavkalarini oshirish to'g'risida qaror qabul qilindi: 2022-yil 1-yanvardan boshlab 26,5% gacha ko'tarilgan holda standart 22% dan 25% gacha, 10 dan 12% gacha pasaytirilgan stavka. Saudiya Arabistonida 2020-yil maydan QQS stavkasi 5 foizdan 15 foizga oshirildi"⁷⁶.

M. A. Achilova, O. V. Bajenovlarni qayd etishicha, bevosita va bilvosita soliqlarning nisbati soliq tizimining iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlanish darajasiga bog'liqligini belgilovchi muhim nuqtadir. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda bilvosita soliqlar fiskal jihatdan bevosita soliqlardan pastroqdir. Tovarlarni va xizmatlarga soliq solishdan olinadigan daromadlarning ustun ulushi, qoida tariqasida, iqtisodiy rivojlanishning nisbatan o'rtacha darajasida farq qiluvchi mamlakatlarda (Portugaliya, Gresiya, Irlandiya) kuzatiladi. Lekin istisnalar ham bor. Fransiyada iqtisodiy rivojlanishning yuqori darajasiga qaramay, bilvosita soliqlar ustunlik qiladi. Jahon amaliyotida soliqni tartibga solishning

⁷⁶ Kasyuba I.A., Petuxova R.A. Vozdeystviye kosvennykh nalogov na ekonomiku. JURNAL.Izvestiya Sankt-Peterburgskogo gosudarstvennogo ekonomicheskogo universiteta.2020. № 5. 69–77s.

ikkita modeli ajralib turadi: bunda yetakchi rolni bevosita soliqlar egallagan “amerikalik” va bilvosita soliqlarning ulushi yuqori bo‘lgan “fransuzcha”⁷⁷.

Fransiyada soliqlar darajasi dunyodagi eng yuqori ko‘rsatkichlardan biridir. Mamlakat byudjetining 90% dan ortig‘ini soliq tushumlari tashkil etadi. Barcha soliqlar va yig‘imlarning soni 200 dan oshadi, ularning stavkalari va shartlari har yili Fransiya parlamenti tomonidan ko‘rib chiqiladi. Fransiya soliq tizimi uni boshqa G‘arbiy Evropa davlatlaridan ajratib turadigan ba‘zi xususiyatlarga ega. Birinchidan, Fransiya yuqori ijtimoiy soliqlar — ijtimoiy jamg‘armalarga to‘lovlar va badallar bilan tavsiflanadi (majburiy to‘lovlar va soliqlarning umumiy miqdorining 40% dan ortig‘i, Evropa Ittifoqi mamlakatlarida o‘rtacha 30% ga nisbatan).

Ikkinchidan, Fransiya soliq tizimi tuzilmasidagi farq tarixan shunday rivojlanganki, davlat daromadlarining umumiy miqdorida bilvosita soliqqa tortishning (iste‘molga olinadigan soliqlar) fiskal ahamiyati bevosita daromadlar ulushidan oshib ketadi. Fransiyadagi bilvosita soliqlar stavkasi Evropadagi eng yuqori ko‘rsatkichlardan biridir. Davlatda bilvosita soliqqa tortishning asosiy manbai qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) hisoblanadi.

Uchinchidan, resurslarning ustuvorligi tamoyili byudjet jarayonining asosini tashkil etadi. Bu ularni boshqa ko‘plab mamlakatlardan ajratib turadi.

To‘rtinchidan, soliq tizimlarini unifikatsiya qilish talablariga muvofiq, Yevropa Ittifoqi doirasida so‘nggi o‘n yillikda imtiyozlar bekor qilinishi hisobiga bir vaqtning o‘zida soliq solinadigan bazaning kengayishi bilan soliq stavkalarining kamayishi kuzatildi.

Rossiya Federatsiyasida bilvosita soliqlar Federal byudjetni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Rossiyaning asosiy soliqlari foydali qazilmalarni qazib olganlik uchun soliq (Nalog na dobychu poleznykh iskopayemykh (NDPI) va QQS bo‘lib qolmoqda (jami — to‘lovlarning 73%). 2022-yilda ishlab chiqarish solig‘i 10,644 trillion rubl. 2021-yilga nisbatan neft va gaz narxining o‘sishi 49,7 foizni tashkil etdi. Ikkinchi soliq, ham o‘shish sur‘atlari, ham tushumlar miqdori bo‘yicha, "ichki" QQS hisoblanadi. Undan 6,489 trillion rubl tushdi, bu 2021-yilga nisbatan 18,4 foizga ko‘pdir. O‘shishning sababi — yilning ikkinchi yarmida talab va ishbilarmolik faolligining tiklanishi. Uchinchi yirik daromad manbai import qilinadigan tovarlarga QQS hisoblanadi. Importning pasayishi fonida uning

⁷⁷ Achilova M. A. Praktika primeneniya pryamyykh i kosvennykh nalogov SSHA i Fransii, v selyax sovershenstvovaniya rossiyskoy sistemy nalooblozheniya osnove ix opyta / M. A. Achilova, O. V. Bajenov // Rossiyskiye regiony v fokuse peremen: sbornik dokladov so spetsialnykh meropriyatiy XII Mejdunarodnoy konferensii. 16-18-noyabrya 2017 goda. — Yekaterinburg: Izdatelstvo UMS UPI, 2018. — S. 273-278.

to'lovlari 18 foizga kamaydi va 3,063 trillion rublni tashkil etdi. Ta'kidlash joizki, "ichki" va "import" QQS miqdorida 9,552 trln. rubl tushum tushgan⁷⁸.

Bilvosita soliqqa tortish bo'yicha xalqaro tajribaning bir qancha jihatlarini O'zbekiston misolida qo'llash mumkin:

QQS tizimini qo'llash: O'zbekistonda hozirda savdo soliq tizimi mavjud, biroq u boshqa ko'plab mamlakatlar kabi QQS tizimini qo'llash foyda keltirishi mumkin. QQS tizimi O'zbekistonga iqtisodiyotdagi tovar va xizmatlar oqimini yaxshiroq kuzatish va daromadlarni yig'ishni yaxshilash imkonini beradi. Bundan tashqari, soliq tizimini soddalashtirish va uni yanada shaffof qilish mumkin.

Tegishli soliq stavkalarini belgilash: O'zbekiston bilvosita soliqlar uchun tegishli soliq stavkalarini belgilashda boshqa mamlakatlar tajribasidan o'rganishi mumkin. Soliq stavkalari hukumatga daromad keltirishi uchun yetarli darajada yuqori bo'lishi kerak, lekin ular iqtisodiy faoliyatni to'xtatib qo'yadigan yoki kam daromadli uy xo'jaliklariga nomutanosib ravishda ta'sir qiladigan darajada yuqori bo'lmasligi kerak.

Adolat bilan bog'liq muammolarga e'tibor qaratish: Har qanday soliqqa tortishda bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham bilvosita soliqqa tortishda adolatga oid xavotirlar paydo bo'ladi. Hukumat ushbu tashvishlarni bartaraf etish choralarini ko'rishi va soliq yukini adolatsiz ravishda kam ta'minlangan uy xo'jaliklari zimmasiga yuklamasligini ta'minlashi kerak. Bu asosiy ehtiyojlar uchun imtiyozlar yoki maqsadli ijtimoiy ta'minot dasturlari kabi choralar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Soliqlarga rioya qilishni kuchaytirish: bilvosita soliqqa tortish murakkab bo'lishi mumkin va soliq to'lashdan bo'yin tovlash va undan qochishga olib kelishi mumkin. O'zbekiston soliq ma'muriyatchiligi tizimlarini modernizatsiya qilish va ijro mexanizmlarini kuchaytirish kabi soliq qonunchiligiga rioya qilishni kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha boshqa mamlakatlar tajribasidan o'rganishi mumkin.

Iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash: bilvosita soliqqa tortish zararli mahsulotlar iste'molini kamaytirish kabi muayyan xatti-harakatlarni rag'batlantirish orqali iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash uchun ishlatilishi mumkin. O'zbekiston tamaki va alkogol kabi ba'zi mahsulotlarni iste'mol qilishni cheklash va hukumatga daromad keltirish uchun aktsiz solig'idan foydalanishi mumkin. Shu bilan birga, hukumat bunday soliqlar kam ta'minlangan uy xo'jaliklariga nomutanosib ravishda ta'sir qilmasligini ta'minlashi kerak.

O'zbekiston bilvosita soliqqa tortish bo'yicha boshqa mamlakatlar tajribasiga tayangan holda adolatli, samarali va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlovchi tizimni

⁷⁸ Byudjet napolnili NDPI i NDS. <https://www.kommersant.ru/doc/5774268>. 22.04.2023.

rivojlantirishi mumkin. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, bilvosita soliqqa tortish tizimini loyihalashda O'zbekiston oldida turgan o'ziga xos kontekst va muammolar ham hisobga olinishi kerak.

O'zbekiston bilvosita soliqlar, jumladan, tizimning adolatliligi va shaffofligi haqidagi xavotirlar, shuningdek, soliq to'lashdan bo'yin tovlash va undan qochish bilan bog'liq muammolarga duch keldi. Bu muammolarni hal qilishga yordam beradigan ba'zi potensial yechimlar:

QQS tizimini joriy qilish: potensial yechimlardan biri joriy savdo soliq tizimidan QQS tizimiga o'tish bo'lishi mumkin. QQS tizimi iqtisodiyotdagi tovar va xizmatlar oqimini yaxshiroq kuzatish imkonini beradi, bu esa daromadlarni yig'ishni yaxshilash va soliq to'lashdan bo'yin tovlashni kamaytirishga yordam beradi. Bundan tashqari, soliq tizimini soddalashtirish va uni yanada shaffof qilish mumkin.

Murakkablikni pasaytirish: O'zbekistondagi joriy bilvosita soliqqa tortish tizimi ancha murakkab bo'lib, bu korxonalarning soliq qoidalariga rioya etishini qiyinlashtirishi va soliq to'lashdan bo'yin tovlashga hissa qo'shishi mumkin. Soliq tizimini soddalashtirish va murakkablikni kamaytirish qonunlarga rioya qilishni rag'batlantirish va soliqdan bo'yin tovlashni kamaytirishga yordam beradi.

Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish: O'zbekistonda soliq ma'muriyatchiligi tizimini modernizatsiya qilish va mustahkamlash soliq yig'ishni yaxshilash va soliqdan bo'yin tovlashni kamaytirishga yordam beradi. Bu texnologiyaga sarmoya kiritish va soliq xodimlari uchun treninglar, shuningdek, ijro mexanizmlarini kuchaytirishni o'z ichiga olishi mumkin.

Adolat bilan bog'liq muammolarga e'tibor qarating: O'zbekistonda bilvosita soliq tizimining adolatliligi, xususan, kam ta'minlangan uy xo'jaliklariga ta'siri bilan bog'liq xavotirlar ko'tarildi. Hukumat bularni hal qilishi mumkin.

Quyidagilar xulosa qilindi.

1. O'zbekiston soliq siyosatida bevosita va bilvosita soliqlarning nisbiyligi nazariyasi soliqqa tortishda adolatni ta'minlashga qaratilganligini e'tirof etish mumkin. Biroq, uning iqtisodiy o'sish va ijtimoiy rivojlanishning kengroq maqsadlariga erishishdagi muvaffaqiyati bir qancha omillarga, jumladan samarali soliq ma'muriyatchiligi va yaxshi boshqaruvga bog'liq.

Umuman olganda bevosita va bilvosita soliqqa tortishning umumiy hamda zamonaviy nazariyalari evolyutsion xarakterga ega bo'lib, ular doimo rivojlanishda bo'ladi.

2. Soliq tushumlarida bevosita, bilvosita, resurs to'lovlari va mulk soliqlarining ulushlarining mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlashi bo'yicha xulosa qilish uchun xalqaro amaliyotni o'rganish maqsadga muvofiq deb

hisoblaymiz. Shuningdek, bevosita yoki bilvosita soliqqa tortishning optimallashtirish har mamlakatning iqtisodiyotining xususiyatlaridan kelib chiqish zarur.

3. O'zbekiston bilvosita soliqqa tortish bo'yicha boshqa mamlakatlar tajribasiga tayangan holda adolatli, samarali va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlovchi tizimni rivojlantirishi mumkin. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, bilvosita soliqqa tortish tizimini loyihalashda O'zbekiston oldida turgan o'ziga xos kontekst va muammolar ham hisobga olinishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. 2019-yil 30-dekabr. 2024.

2. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 28-dekabrdagi "Soliq va byudjet siyosatining 2024-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-891-son qonuni.

3. Alimardanov M.I., Abdullayev B.N. Qo'shilgan qiymat solig'ini takomillashtirish masalalari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2015-yil.

4. Axmadeev, R. G., Быканова, O. A. Izmeneniye struktury vneshney zadoljennosti po stranam BRIKS // Azimut nauchnykh issledovaniy: ekonomika i upravleniye. – 2017. – T. 6, № 1 (18). – S. 22-26.

5. Djalilov R. Mamlakatimizda soliq siyosati va uning qo'shilgan qiymat solig'i mexanizmiga ta'siri. "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti, buxgalteriya hisobi va auditini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari" nomli Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. 2023-yil 6-7-iyun.